



**Yangi Konstitutsiya
kuchga kirdi! Nimalar
o'zgardi?**

2-betda o'qing ↘



**Tadbirkorning
millionlari qaytarildi**

4-betda o'qing ↘

INSON va qonun

2023-YIL
16-MAY
SESHANBA

No 19 (1379)

www.hudud24.uz

www.adolatmarkazi.uz

telegram.me/hudud24official/

facebook.com/hudud24official/

@adolat_nashrlari



"ADOLAT" milliy
huquqiy axborot
markazi nashrlariga
obuna bo'ling!



"Adolat
nashrlari"
telegram
kanalida
kuzating!"



XALQARO YURIDIK FORUMIGA MARHABO!


2023-yil 17-18-may

Toshkent shahri

"Tashkent Law Spring" III Xalqaro yuridik forumi Markaziy Osiyo mintaqasida huquq sohasidagi muhim voqealardan biridir. Forum **O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi** huzurida ikki yilda bir marta o'tkaziladi. Forum geografiyasi 40 dan ortiq davlatni birlashtiradi.

2 MOHIYAT

YANGI tahrirdagi Konstitutsiyamiz joriy yilning 30-aprel kuni referendum orqali qabul qilinib, 1-maydan e'tiboran kuchga kirdi. Markaziy saylov komissiyasi ma'lumotiga ko'ra, referendumda qatnashgan aholining 90 foizi konstitutsiyani o'zgartirishga "ha" deb, 9 foizi esa "yo'q" deb ovoz bergani ma'lum qilindi. Yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiya 65 foizga yangilangan, huquqiy normalar soni 58 foizga ko'paygan. Shu bilan birga, deputatlarning aytishicha, konstitutsiya qabul qilingan kun sifatida bundan keyin ham 8-dekabr e'tirof etiladi, ya'nii bayram sanasi o'zgarmaydi.



Yangi Konstitutsiya kuchga kirdi!

NIMALAR O'ZGARDI?

Shuningdek, Konstitutsiyada inson huquqlari va erkinliklari haqida yangi normalar qo'shildi. Jumladan, fuqarolarning siyosiy huquqlari kengaydi. Ya'nii, Konstitutsiyaning 37-moddasi "O'zbekiston Respublikasining fuqarolar davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa egadirlar. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklarlar qonun bilan belgilanadi", degan norma mustahkamlandi.

Mazkur normaning Konstitutsiyada belgilanishi ham so'nggi yillarda mamlaktimizda davlat xizmatini tashkil etish va huquqiy asoslarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar natijasida ilgari surilgan taklif edi. 2022-yil 8-avgustda "Davlat fuqarolik xizmati to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Davlat xizmati konstitutsiyaviy prinsiplar asosida tashkil qilinganiga qaramasdan, fuqarolarning davlat xizmatiga kirish imkoniyatlari konstitutsiyaviy normalarda mustahkamlanmagan edi. Zero, konstitutsiyaviy o'zarish yo'nalishlaridan biri sifatida ilgari amal qilib kelgan "davlat - jamiyat - inson" tamoyilini "inson - jamiyat - davlat" deb o'zgartirish, uni milliy qonunchilik va huquqiy amaliyotda mustahkamlash taklifi ham ilgari surilgan edi.

Bugungi kunda davlat xizmati institutini huquqiy jihatdan ta'minlash borasida dunyoning deyarli barcha mamlakatlari faol pozitsiyani egallashgan. Ko'plab qonun chiqaruvchilarning davlat xizmati institutini tashkil etishning konstitutsiyaviy darajada asos yaratganlari ijobji baholanadi. Xususan, AQSh, Fransi-

ya, Germaniya va boshqa davlatlarda shunday qoida joriy qilingan. Jumladan, Fransianing 1958-yilgi Konstitutsiyasida, Germanianing 1949-yilgi Konstitutsiyasida ham bunday normalar mavjud.

Davlat xizmati O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida belgilangan vazifalarni bojarishda katta ahamiyatga egadir. U demokratik muvozanatni, huquqiy davlatning asosiy tomoyillariga rioya qilishni hamda inson huquqlari va erkinliklarining muhofazasini ta'minlaydi. Davlat xizmati orqali davlat siyosati olib borilayotgan islohotlar demokratik tarzda hayotga tatbiq qilinadi.

Konstitutsiyaning bir necha moddalarini bevosita davlat xizmatini tashkil etish va davlat xizmatini o'tashning asosiy tamoyillarini mustahkamlaydi. Jumladan, davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariiga xizmat qiladi. Davlat organlari va mansabdar shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ulidirlar. Mazkur prinsip Ma'muriy islohotlar konsepsiyasida belgilangan "Xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralarini xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan g'oyaning ham asosi ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda shaxsning huquva erkinliklari demokratik davlat rivojlanishi sharoitida alohida ahamiyatga ega. Ana shunday muhim huquqlardan biri fuqarolarning davlat xizmatiga kirishdagini konstitutsiyaviy huquqidir. Ushbu huquqning alohida dolzarbliji uning demokratik va huquqiy davlatning

demokratizm prinsipini ta'minlashdan kelib chiqadi. Ya'nii, xalq hokimiyyatning birdan bir manbai sifatida fuqarolar davlat ishlarni boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar. Fuqarolar davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega bo'lishlari davlat ishlarni boshqarishda bevosita qatnashish imkoniyatlarini kafolatlaydi.

Shuni ta'kidlab o'tishimiz lozimki, rivojlanjan xorijiy mamlakatlar konstitutsiyasida fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanliklari aniq belgilab qo'yilgan. Shuningdek, bu qoida 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ilk bor e'tirof etilgan bo'lib, uning 21-moddasi ikkinchi qismiga muvofiq, har bir inson o'z mamlakatida davlat xizmatiga kirishda teng huquqlarga egaligi ko'rsatilgan.

Ushbu qoidaga asos bo'lgan prinsiplar 1966-yil 16-dekabrda BMTning Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktrning 25-moddasida huquqiy jihatdan mustahkamlangan hamda rivojlantirilgan. Ushbu hujjatda hech bir fuqaro hech qanday kamsitishsiz va asoslanmagan cheklanishlarsiz o'z mamlakatida umumi shart-sharoitlarda davlat xizmatiga kirishda teng huquq hamda imkoniyatlarga ega bo'lishi kerakligi ko'rsatilgan. Ushbu qoida bugungi kunga kelib, ko'plab mamlakatlarning konstitutsiyalarida mustahkamlangan. Xususan, Italiya, Fransiya,

Germaniya, Rossiya Federatsiyasi, Armaniston, Tojikiston, Qozog'iston Respublikasi va boshqa MDH davlatlarining konstitutsiyalarida ham mazkur norma mavjud.

Tenglik prinsiping mohiyati shundaki, bunda fuqarolar davlat xizmatiga kirishda jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsisi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar huquqlarining tengligi kafolatlanadi. Davlat xizmatida fuqarolarning faoliyat ko'shatishida, mansab yoki lavozim bo'yicha harakat-nishida davlat tomonidan teng sharoitlar yaratib beriladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, fuqarolarning davlat xizmatiga teng kirish huquqi asosan saylov yoki tanlov asosida amalga oshiriladi. Bunda fuqarolar davlat xizmati lavozimlarini egallashlari uchun saylovida yoki tanlovda har qanday kamshitilishlarsiz va qonunchilikka zid bo'lgan cheklarlar qatnashishlari mumkin. Davlat xizmatini o'tash bilan bog'liq cheklarlar faqat qonun bilan belgilanadi. Ya'nii, ayrim davlat lavozimlarini egallash uchun ma'lum bir talab va cheklarlar belgilangan. Jumladan, fuqarolikka ega bo'lishi, sudlanmagan bo'lishi, ma'lum bir yoshga yetishi va h.k. Qonunchilik hujjatlarida belgilanmagan cheklar va talablarni qo'yish taqiqlanadi.

Shuningdek, shaxsning ishchanlik qobiliyatini va mehnatining natijalariga aloqador bo'lmagan (jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy holati va mansab mavqeい, denga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoa birlashmalariga mansubligi va h.k.) jihatlariga qarab har qanday cheklashlarga yoki imtiyozlar belgilashga yo'l qo'yilmaydi va bular kamsitish deb hisoblanadi. Lekin mehnatning muayyan turiga xos bo'lgan talablar yoki ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar (ayollar, voyaga yetmaganlar, nogironligi bo'lgan shaxslar) g'amxo'rлиgi bilan bog'liq farqlash kamsitish deb hisoblanmaydi.

Konstitutsiyada fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquqqa ega ekanliklari belgilanishi fuqarolarning davlat xizmatiga kirishdagini huquqlarini ta'minlashga, yuqorida keltirib o'tilgan har qanday kamsitish va qonunchilikka zid bo'lgan cheklardan himoya qiladi va davlat xizmatchilariga davlat xizmatini o'tashlarida teng shart-sharoit yaratib beradi. Mazkur qoidanining asosiy qonunimizda belgilanishi fuqarolarning davlat xizmatiga kirishda teng huquq va imkoniyatlari kafolati bo'lib xizmat qiladi. Zero, Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Adolatli va xalqparvar davlat qurish yo'lida muhim vazifalarni amalga oshirish uchun yangi konstitutsiyaviy makon va mustahkam qonunchilik bazasi kerak bo'ladi".

Farida ISAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti
katta o'qituvchisi

Yillar davomida xotin-qizlar va bolalarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotida ko'plab muammolar yuzaga kelganligi barchamiga ayon. Jumladan, xotin-qizlar va bolalarning huquqlariga daxil qiluvchi jinoi qilmishlar uchun mutanosib sanksiyalar belgilanmagan, shaxs hayotining sir tutiladigan tomonlarini aks ettiruvchi, sha'ni va qadr-qimmatini kamsituvchi ma'lumotlarni oshkor qilganlik uchun javobgarlik nazarda tutilmagan edi.



"HIMOYA ORDERI"ning himoyalash MUDDATI UZAYTIRILDI

Shu bilan birga, tazyiq va zo'ravonlikdan jablanuvchiga davlat himoyasini taqdim etuvchi order muddati (30 kun) xotin-qizlarning huquq va qonuniy manfaatlarini yetarli darajada himoya qilish imkonini bermaydi. Aliment to'lomagan shaxslarga jazo sifatida jarima tayinlanishi yanada moddiy qiyinchiliklariga olib kelar edi.

Endilikda qonunchilikka bir qator yangiliklar kiritildi. Xususan, olibaviy (maishiy) zo'ravonlik uchun jinoi javobgarlik belgilandi. Xotiniga (eriga), sobiq xotiniga (sobiq eriga), bir ro'zg'or asosida birligida yashayotgan shaxsga, umumiylar farzandga ega bo'lgan shaxsga o'z huquqlarini amalga oshirishda to'sqinlik qilish, shaxsiy narsalariga qasddan shikast yetkazish, sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlash, qo'rqtish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo'yish uchun quydagi javobgarlik belgilandi:

- Bazaviy hisoblash miqdorining 10 baravaridan 20 baravarigacha jarima yoki 10 sutkagacha ma'muriy qamoq. Ularni do'pposalash esa 15 sutkagacha muddatga ma'muriy qamoq jazosiga sabab bo'ladi.

Mazkur harakatlar ma'muriy jazo qo'llanilganidan keyin takror sodir etilsa jinoi javobgarlikka sabab bo'ladi. Javobgarlik - BHMning 20 baravaridan 30 baravarigacha jarimadan boshlanib, 2 yilgacha axloq tuzatish ishlariiga cha. Yuqorida shaxslarni do'pposalash, ularga tan jarohati yetkazish 2 yildan 3 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanishi mumkin.

Olibaviy zo'ravonlik og'irlashtiruvchi holatlarda sodir etilsa (masalan, homilador, o'ta shafqatsizlik bilan, ikki yoki undan ortiq shaxsiga shikast yetkazish), jiddiy oqibatlarni keltirib chiqqarsa (masalan, ko'rish, so'zlash qobiliyatini yo'qotish, o'lim), 3 yildan 12 yilgacha ozodlikdan mahrum qilishga sabab bo'ladi. Avval mazkur harakatlar uchun umumiylar moddalariga (badanga shikast yetkazish) asosan javobgarlikka tortilgan.

Shu jumladan, "Himoya orderi" muddati 1 yilgacha uzaytirilishi mumkinligi belgilandi.

Tazyiq va zo'ravonlikdan jablanuvchi shaxs va unga tazyiq o'tkazgan va zo'ravonlik qilgan shaxs bi joyda ishlasi yoki o'qisa, ichki ishlar organi mansabdar shaxsi ularning o'tsasiagi bevosita aloqani taqiqlash bo'yicha tashkilotga taqdimnoma kiritadi va tashkilot rahbari taqdimnoma ijrosini ta'minlaydi.

Ilgari "Himoya orderi" muddati 30 kungacha ichki ishlar organlari tomonidan uzaytirilgan bo'lsa, endi uning muddati sud tomonidan 1 yilgacha uzaytirilishi mumkin.

JAVOBGARLIK BELGILANMAGAN EDI

Shu bilan birga, shilqimlik qilish uchun ma'muriy javobgarlik belgilandi. Unga ko'ra, shaxsga nomaqbul hamda uning sha'ni va qadr-qimmatini tahqirlaydigan, tashqi qiyofasini yoki qaddi-qomatini tavsiflashda, imo-ishora qilishda, teginishda, chaqirishda ifodalangan, shahvoni xususiyatga ega harakatlarni sodir etish BHMning 2 baravaridan 5 baravarigacha jarima solishga yoki 5 sutkagacha ma'muriy qamoq jazosiga sabab bo'ladi. Ilgari mazkur harakatlar uchun javobgarlik belgilanmagan edi.

ALIMENT MALASIDA HAM YANGILIK BOR

Endi aliment to'lomagan shaxs majburan ishlatalib, ishlagan puli bolalari ta'minotiga yo'naltiriladi. Qonunchilikka ularni haq to'lana-digan jamoat ishlariiga majburiy ravishda jaib etish jazosi kiritildi. U sudlar tomonidan 8 soatdan 240 saatgacha muddatga tayinlanadi.

Ma'lumki, aliment qarzorligi jiddiy muammolarni keltirib chiqqaratog'an edi. Aliment to'lamay yurgan shaxslarni 15 sutkaga qamash yoki jarimaga tortish aksariyat hollarida aliment oluvchiga umuman nafi tegmay-digan jazo turlaridan hisoblanardi. Aksincha, qamoqqa olingan aliment to'lovchi 15 sutka ishlab pul topish imkoniyatidan mahrum bo'lardi, jarima jazosi esa uning ahvolini yanada og'irlashtirdi.

Endi ular majburiy jamoat ishlariiga ham jaib etiladi va ish haqining teng yarmi alimentga ushlab qolinadi.

VASIY YOKI HOMIY TAYINLASHI SHART!

Endi ota-onaning voyaga yetmagan bolalariiga vasiy yoki homiy tayinlash bo'yicha majburiyatlarni bajarmagan uchun ham ma'muriy javobgarlli belgilandi.

Masalan, ota-onalar, 6 oydan ko'p muddatga xorijga ketganda voyaga yetmagan farzandlariga vasiy va homiy tayinlab ketishi kerak. Biroq bu qoidaga doimo amal qilinmaydi. Xususan, ota-onalar mazkur majburiyatlarni bajarmagan holda xorijga chiqib ketganlarida ularning farzandlari tomonidan turli jinoyatlar sodir etilishi holatları kuzatiladi. Endilikda, mazkur qilish BHMning 10 baravarigacha miqdorda jarima solishga sabab bo'ladi.

Qolaversa, ota-onaliga yashash joyidan chet davlatga vaqtincha chiqib ketayotganida, o'z bolasiga vasiy yoki homiy tayinlashi shart bo'lgan muddat 6 oydan 3 oyga qisqartirildi. Ya'ni, ota-onaliga 3 oydan ko'p vaqtga chet elga ketsa, bolasiga vasiy yoki homiy tayinlashi kerak, aks holda ma'muriy javobgarlikka sabab bo'ladi.

Ahrorbek FAYZULLAYEV,
Namangan viloyat
adliya boshqarmasi mas'ul xodimi

KEYINGI yillarda yurtimizda ayollar huquqlari himoyasini tubdan kuchaytirishga doir 15 dan ortiq me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilinib, ijroga qaratildi. 2019-yilda ikkitu muhim hujjat, ya'ni "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi hamda "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi.



Homilador yoki bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishni rad etish...

Yangi Konstitutsiyada ham ayollarning huquqlari oly darajada mustahkamlandi. Jumladan, homiladorligi yoki bolasi borligi bilan bog'liq sabablarga ko'ra ayollar ni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi belgilandi.

Onalikni himoya qilish insoning asosiy huquqi va keng qamrovli mehnat va oila siyosatining ajralmas elementidir. Shu bilan birga, bu ona va bora salomatligini mustahkamlash, ish joyida ayollarga nisbatan kamshitning oldini olishda muhim ahamiyatga ega. Onalikni himoya qilish to'g'risidagi qonun hujjatlarining maqsadi ayollarga o'zlarining reproduktiv va kasbdagi rollarini muvaffaqiyatlari birlashtirishga imkon berish, sog'iqliq va iqtisodiy xavfsizlikka zarar yetkazmagan holda ish joyida va oila teng imkoniyatlarga ega bo'lishdan iboratdir.

Salohiyatlari kadrlar orasida raqobat kuchaygan bir davrda mazkur normaning oly darajada belgilanishi o'ziga xos ahamiyatga ega. Mehnat bozorida ish beruvchilar imkon boricha "kamchiqim" va uzlaksiz ishlaydigan xodimlarni ishga yollashga harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, ish beruvchilar tomonidan homilador yoki bolasi bor ayollarni ishga olishni istamaslik holatlarini keltirib chiqaradi. Chunki mehnat qonunchiligiga muvofiq, bu toifa xodimlarga homiladorlik va tug'ish ta'tillari berilib, davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa to'lanadi hamda muayyan sharoitlar yaratib berish talab etiladi.

Homilador va yosh bolali ayollarning mehnat qilishiga to'sqinlik qilish ularning jamiyat hayotidan ajralib, ijtimoiy himoyaga muhito bo'lib qolishiga sabab bo'ladi. Homilador yoki emizikli onalar o'zlarining yoki chaqaloqlarining sog'lig'iiga zarar yetkazmaslik uchun alohida himoyaga, shuningdek, tug'ish, tiklanish va bolalarni boqish uchun yetarli vaqtga muhitoj. Shu bilan birga, ular homiladorlik yoki tug'urug' ta'tillari tufayli ishini yo'qotmasliklarni ta'minlash uchun ham zarur himoyaga ehtiyoj sezadi. Bunday himoya nafaqat ayloning ish bilan ta'minlanishi, balki butun oila farovonligi uchun zarur hisoblanadi.

Yangi Konstitutsiyada fuqarolarning, ayniqsa, homiladorligi yoki bolasi bor ayollarni ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirish taqiqlanishi kafolatlandi. Bu esa mazkur toifadagi aholi qatlaminis ishga qabul qilishni rad etish, ishdan bo'shatish va ularning ish haqini kamaytirishning taqiqlanishi davlatimizning har bir fuqarosi, ayniqsa, homilador yoki bolasi bor ayollar alohida e'tiborda ekanligining amaliiy isbotidir.

Asal JO'RAYEVA,
Toshkent davlat yuridik universiteti o'qituvchisi

4 MUROJAATLAR ADLIYA NIGOHIDA

SIRDARYO

YANGIYER shahrida faoliyat yurituvchi "Yangiyer-quruvchi professional futbol klub" MChJ rahbari Y. Mamatqulovning murojaati Yangiyer shahar adliya bo'limi tomonidan o'rganib chiqildi.

MAHSULOT YOQADI, TO'LOVI CHAQADI



Aniqlanishicha, MChJ va Oqoltin tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi o'rtaida 2019-yil 11-iyunda mahsulot yetkazib berish yuzasidan shartnomaga tuzilgan. Shartnomaga ko'ra, MChJ Oqoltin tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi asfalt beton mahsulotlari yetkazib berish majburiyatini oлган.

Shartnomaga qiymati 2 milliard 688 million 420 ming 252 so'mni tashkil etib, "Yangiyer-quruvchi professional futbol klub" MChJ tomonidan shartnomaga majburiyatlar bajarilib, Oqoltin tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi jami 769 million 28 ming 601 so'mlik asfalt beton mahsulotlari yetkazib berilgan.

Biroq, Oqoltin tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi tomonidan shartnomaviy majburiyatlari lozim darajada bajarilmasdan, mablag'ning 440 million so'mni to'lab berilgan xolos, qolgan 329 million 28

ming 601 so'mlik olingan mahsulotning to'lovi amalga oshirilmagan.

Organish davomida ushu qarzdorlik mavjud shartnomalar, hisobvaraq faktura, yuk xatlari, to'lov xarajatlari bilan o'z tasdig'ini topdi.

Fuqarolik kodeksining 236-moddasiga asosan majburiyatlar majburiyat shartlariga va qonun hujjatlar talablariga muvofiq, bunday shartlar va talablar bo'lmaganida esa - ish muomalasi odatlariga yoki odatda qo'yiladigan boshqa talablariga muvofiq lozim darajada bajarilishi kerak.

O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi qonuning 32-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra, yetkazib berilgan tovarlar (ishlar, xizmatlar) haqini o'z vaqtida to'lamanaganlik uchun sotib oluvchi (buyurtmachi) yetkazib beruvchiga

otkazib yuborilgan har bir kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lмаган miqdorida penya to'lashi ko'satilgan.

Yuqoridagilarga asosan Yangiyer shahar adliya bo'limi tomonidan tadbirkor manfaatida Oqoltin tumanlararo iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning hal qiluv qarori bilan Oqoltin tuman yo'llardan foydalanish unitar korxonasi hisobidan "Yangiyer-quruvchi professional futbol klub" MChJ foydasiga 329 million 28 ming 601 so'm asosiy qarz, 23 million 500 ming so'm penya undiriladigan bo'ldi. Bundan tashqari, Respublika budjetiga 9 million 870 ming 858 so'm davlat boji to'lanishi ham belgilandi.

Laziz XUDOYQULOV,
Yangiyer shahar adliya bo'limi boshlig'i

SURXONDARYO

PREZIDENTIMIZNING 2021-yil 29-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlariiga yuridik xizmat ko'satish faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga asosan va Yuridik xizmat ko'satish markazlari to'g'risidagi nizomga ko'ra, markazlarning asosiy vazifalaridan biri yuridik xizmat ko'satiladigan tashkilotlarning mulkiy hamda boshqa huquq va qonuniy manfaatlarini o'z vaqtida himoya qilish, shartnomaviy-huquqiy va talabnomada va ishlarni yuritish, sud protsesslarida qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda ishtirok etib, tashkilotning mulkiy va boshqa manfaatlar ishonchli himoya qilinishini ta'minlashdan iborat.

KO'CHAT PULI "O'TIN" BO'LDIMI?



Jumladan, Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'satish markazi tomonidan Prezidentning yuqorida qarori ijrosini ta'minlash maqsadida "Uzun" davlat o'rmon xo'jaligi manfaatini ko'zlab, G'uzor tumanlararo iqtisodiy sudiga "Shortan" davlat o'rmon xo'jaligidan shartnomaga asosan 52 million 100 ming so'm haqdarlikni undirish to'g'risida da'vo arizasi kiritildi.

Shunga ko'ra, G'uzor tumanlararo iqtisodiy sudi da'vogar - "Uzun" o'rmon xo'jaligi foydasiga javobgar - "Shortan" davlat o'rmon xo'jaligidan shartnomada ko'satilgan to'liq yetkazib berilgan ko'chatlar uchun qarzdorlikni undirishni lozim topdi.

Sud tomonidan Fuqarolik kodeksining 437-moddasiga ko'ra, mahsulot yetkazib berish shartnomasiga muvofiq tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanayotgan mahsulot yetkazib beruvchi sotuchi shartlashilgan muddatda o'zi ishlab chiqargan yoxud sotib oladigan tovarlarni sotib oluvchilarga tadbirkorlik faoliyatiga foydalanish uchun yoki shaxsiy, olaviy maqsadlarda shunga oxshash boshqa maqsadlarda foydalanish uchun topshirish, sotib oluvchi esa tovarlarni qabul qilish va ularning haqini to'lash majburiyatini oladi, deb belgilab o'tilganlik holati inobatga olinib, da'vo to'liq qanoatlanirildi. Javobgar - "Shortan" davlat o'rmon xo'jaligi hisobidan da'vogar - "Uzun" davlat o'rmon xo'jaligi foydasiga 52 million 100 ming so'm haqdarlikni undirish to'g'risida hal qiluv qarori chiqarildi.

Shuningdek, tuman adliya bo'limining Termiz tumanlararo iqtisodiy sudiga kiritgan da'vo arizasiga ko'ra, davogar - "Uzun" davlat o'rmon xo'jaligi javobgar - "Surxondaryo yo'l ko'kalam" davlat unitar korxonasidan 169 million 400 ming so'm haqdarlikni undirish so'ralgan. Fuqarolik kodeksining 333-moddasiga asosan qarzdor aybi bo'lgan taqdirda majburiyatni bajarmaganligi uchun javob beradi, deb belgilab qo'yilgan. Shunga ko'ra, sud davlat unitar korxonasidan 169 million 400 ming so'm haqdarlikni undirish to'g'risida hal qiluv qarori qabul qildi.

Najmiddin ESHMURZAYEV,
Sariosiyo tuman adliya bo'limi yuridik xizmat ko'satish markazi bosh yuristkonsulti

SAMARQAND

BUYURTMAKI - Samarqand shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi va pudratchi - "B.J." MChJ o'rtaida 2022-yil 2-noyabrda pudrat shartnomasi tuzilgan bo'lib, mazkur shartnomaga asosan Samarqand shahridagi Xalqlar do'stligi ko'chasida 198 million so'mlik joriy ta'mirlash ishlarni amalga oshirish hamda ta'mirlash ishlari 2022-yilning 25-noyabriga tugashi belgilangan.



TADBIRKORNING MILLIONLARI QAYTARILDI

Pudratchi tashkilot tomonidan shartnomaga shartlari to'liq bajarilib, foydalanishga topshirilgan. Biroq buyurtmachi tomonidan bajarilgan ishlarni to'lov amalga oshirilmagan.

Kelishuvga asosan mehnatining haqini ololmay sarson bo'lgan MChJ rahbari Samarqand shahar adliya bo'limiga ariza bilan murojat qildi. Bo'lim tomonidan holat o'ganilib, tadbirkorning qonuniy manfaatlarini ko'zlab, Samarqand shahar iqtisodiy sudiga da'vo arizasi kiritildi.

Sudning hal qiluv qaroriga muvofiq, javobgar - shartnomaga shartlarini bajarmagan Samarqand shahar hokimligi Obodonlashtirish boshqarmasi hisobidan pudratchi foydasiga 198 million so'm asosiy qarz undirilishi belgilandi.

Nodir KOMILOV,
Samarqand shahar adliya bo'limi boshlig'i



BEMORGA YORDAM BERGAN XODIMNING ISH HAQI SAQLANADIMI?

- "XODIM kasalxonada davolana-yotgan qarindoshiga qarab turganligi uchun uning oylig ish haqi saqlanadimi? Qonunchiligidizda shu haqda nima deyilgan?"

- "Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida"gi nizomning 16-bandiga ko'ra, uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lub, bolani parvarishlashga curbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan ishlayotgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqsiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqsasi bermor birovning parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

On to'rt yosha yetmagan bermor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqsasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.



ONA BOLALARINI OTASIGA KO'RSATMASLIKKA HAQLIMI?

- Bolalarimning otasi bilan anchava qaqdan beri birga yashamayapmiz. Shu kungacha farzandlaridan xabar olmagan kishi endi bolalarini ko'rishni istayapti. Lekin men endi unga farzandlarimni ko'rsatishni xohlamayman. Bunga qonuniy haqqim bormi?

- Oila kodeksining 66-moddasiga ko'ra, bola otasi, onasi, bobosi, buvisi, aka-ukalari, opa-singillari va boshqa qarindoshlari bilan ko'rishish huquqiga ega. Ota-onasining nikohdan ajralishi, nikohning haqiqiy emas deb topilishi yoki ota-onaning boshqa-boshqa yashashi bolaning huquqlariga ta'sir qilmaydi. Ota va ona alohida yashagan holda bola ularning har biri bilan ko'rishish huquqiga ega.

Shuningdek, ushbu kodeksning 76-moddasiga ko'ra, boladan alohida yashayotgan ota (ona) bola bilan ko'rishish, uning tarbiyasida ishtirok etish va ta'llim olishi masalasini hal etishda qatnashish huquqiga ega. Mazkur kodeksning 75-moddasiga ko'ra, o'z ota-onalik huquqini bolalaring huquq va manfaatlariga zid tarzda amalga oshirayotgan ota-ona qonunda belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.



2023-YIL 1-AVGUSTDAN BOSHLAB...

- Ota-onalar xususiy bog'cha yoki xususiy matabga to'lov qilin-ganda, daromad solig'idan imtiyoz beriladimi?

- Soliq kodeksining 378-moddasiga ko'ra, farzandlariga nodavlat maktabgacha ta'llim tashkilotlari va (yoki) maktablar ko'sratadigan ta'llimga oid xizmatlar uchun ota-ona (farzandlikka oluvchilar) tomonidan har bir farzand uchun to'lanadigan oyiga 3 million so'mgacha bo'lgan to'lovlar daromad solig'idan ozod qilinadi.


2023-yil 1-avgustdan boshlab esa barcha yoshdagagi farzandlarining ta'llimiga yo'naltirilgan to'lovlar soliqdan ozod qilinadi. Ya'ni, "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonining 11-bandiga ko'ra, fuqarolarning yangi tahrirdagi Konstitutsianing 50-moddasida belgilangan ta'llim olish huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish maqsadida 2023-yil 1-avgustdan boshlab soliq to'lovchilar tomonidan yoshidan qat'i nazar farzandlarining O'zbekiston Respublikasi ta'llim tashkilotlarida ta'llim olishlari uchun yo'naltiriladigan to'lovlar soliq solinmaydigan daromadlar toifasiga kirtilishi belgilandi.



...XIZMATLAR UMUMIY QIYMATINING 50 FOIZINI TASHKIL QILADI

- Kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun to'lovi amalga oshirishda kam ta'minlanganlarga qanday imtiyozlar bor?

- Ko'chmas mulk obyektlarining kadastr pasportini tayyorlash va kadastr hujjatlarini rasmiylashtirish uchun to'lov miqdorlari Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 10-iyuldagagi "Davlat kadastro sohasida davlat xizmatlari narxlarini belgilashda tabaqaqlash-tirilgan yondashuv tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qaroriga asosan tartibga solinadi. Uning kadastr plani, ya'ni kadastr yig'ma jildini shakllantirish uchun murojaatlar davlat xizmatlari markazi orqali qabul qilinadi. Kadastr yig'ma jildini shakllantirish natijasi bo'yicha kadastr pasporti taqdim etiladi. Ushbu qarorga ko'ra, "ijtimoiy himoya yagona reyestri" axborot tizimida ro'yxatga olingan shaxslarga, shuningdek, I va II guruh nogironlari va Ikkinchil jahon urushi qatnashchilari uchun davlat xizmatlari narxi xizmatlar umumi qiy-matining 50 foizini tashkil qiladi.



OLDINGI NIKOHDAGI FARZANDLAR HAM MEROSXO'R BO'LADIMI?

- Otamdan qolgan uyni onam-ning nomiga rasmiylashtirmoqchi edik. Otamning oldingi nikohidagi farzandlari ham merosxo'r bo'lismeni aytishdi. Shu to'g'rimi?

- Fuqarolik qonunchiligiga ko'ra, meros qoldiruvchining bolalari (shu jumladan farzandlikka olingan bolalari), eri (xotini) va ota-onasi (far-



Savollarga "Madad" NNT Nukus shahar huquqiy maslahat byurosi bosh mutaxassisini
Amangul ALDAMURATOVA javob berdi

zandlikka oluvchilar) teng ulushlarda qonun bo'yicha birinchi navbatdagi vorislik huquqiga ega bo'ladi. Meros qoldiruvchining vatofidan keyin tug'ilgan bolalari ham birinchi navbatdagi vorislar jumlasiga kirishi belgilangan. Shuningdek, Fuqarolik kodeksining 1146-moddasiga asosan meros ochilgan joydagi notarius merosxo'rning iltimosiga ko'ra unga merosga bo'lgan huquq to'g'risida guvohnoma berishi shart. Merosga bo'lgan huquq to'g'risidagi guvohnoma meros ochilgan kundan e'tiboran olti oy o'tganidan keyin beriladi. Merosxo'rler merosni o'zaro taqsimlash yuzasidan kelishuvga erisha olmagan hollarda taqsimot ular dan istalgan birining talabi bo'yicha sud tartibida amalga oshiriladi.



SUD ISHTIROKISIZ ALIMENT OLISHIM MUMKINMI?

- Farzandlarimning ta'minoti uchun otasidan aliment undirmoq-chiman. Sud ishtirokisiz aliment olishim mumkinmi?

- Oila kodeksining 131-moddasiga ko'ra, aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda tuzilib, notarial tartibda tasdiqlanishi lozim. Aliment to'lash to'g'risida kelishuv tuzishning qonunda belgilangan shakliga rioya qilmaslik. Fuqarolik kodeksida nazarda tutilgan oqibatlarga olib keladi. Notarial tartibda tasdiqlangan aliment to'lash to'g'risidagi kelishuv esa ijo varaqasi kuchiga ega bo'ladi.

6 HOLAT

BILASIZMI?

Davlat boji aybdor tarafidan undiriladi

Yangi Konstitutsiyaning 55-moddasida qayd etilishicha:

- HAR kim o'z huquq va erkinliklari qonunda taqiqlanmagan barcha usullar bilan himoya qilishga haqlid.
- Har kimga o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish, davlat organlarining hamda boshqa tashkilotlarning, ular mansabdar shaxslarining qonunga xi洛 qarorlari, harakatlari va harakatsizligi ustidan sudga shikoyat qilish huquqi kafolatlanadi.
- Har kimga buzilgan huquq va erkinliklarini tiklash uchun uning ishi qonundu belgilangan muddatlarda vakolati, mustaqil hamda xolis sud tomonidan ko'rib chiqilishi huquqi kafolatlanadi.
- Har kim O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va xalqaro shartnomalariga muvofiq, agar davlatning huquqiy himoyaga doir barcha ichki vositalardan foydalanib bo'llingan bo'lsa, insонning huquq va erkinliklarini himoya qiluvchi xalqaro organlarga murojaat etishga haqlid.
- Har kim davlat organlarining yoxud ular mansabdar shaxslarining qonunga xi洛 qarorlari, harakatlari yoki harakatsizligi tu-fayli yetkazilgan zararning o'mni davlat tomonidan qoplanishi huquqiga ega.



Konstitutsiyaning mazkur moddasi belgilangan har bir shaxsning o'z huquq va erkinliklarini sud orqali himoya qilish huquqi kafolatlarini yana-da kuchaytirish maqsadida:

2024-yil 1-yanvardan boshlab, ma'muriy sndlara shikoyat qilishda fuqaro va tadbirkorlik subyektlaridan davlat bojini undirmaslik, bunda davlat bojini ishni ko'rib chiqish natijasi bo'yicha aybdor tarafidan undirish tarbi joriy etiladi.

BMT ma'lumotlariga ko'ra, 1990-yilda xalqaro migrantlar soni 153 million nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2000-yilga kelib mazkur ko'sratkich 173 millionga yetgan. 2023-yilda esa ushu ko'sratkich qariyb 300 million nafarni tashkil etgan.



Ziddiyatli tus olayotgan

MIGRATSİYA JARAYONIDA qanday choralar ko'rilmoxda?

Jahonda migratsiya jarayonlarini samarali tartibga solishning tashkiliy-huquqiy muammolarini o'rganishga oid zarur ishlар amalga oshirilmoqda. Bu borada, ayniqa, ijtimoiy tengsizlik, o'zaro ishonchszilik va nizolar, qurollи to'qnashuvlar, millatlar va konfessiyalar o'tsidiagi ixtiolar ta'sirida yuzaga kelayotgan siyosiy qochoqlik, majburiy muhajirlik hamda noqonuyi migratsiya kabi murakkab tendensiyalar ning rivojlanish qonuniyatlarini o'rganish talab etiladi, albatta. Mazkur omillar natijasida paydo bo'lishi mumkin bo'lgan ijtimoiy xavfning oldini olish va aholini boshqarishni puxta o'ylangan siyosat darajasida tashkil etishning asoslashni yechimlarini topish juda muhim hoidisadir.

XXI asrda kelib migratsiya hodisisi dunyo siyosiy landshaftining o'zgarib ketishiga sabab bo'layotgan eng yirik global muammolar qatoridan o'rнn egalladi. Migratsiyaga sabab bo'luvchi manbalar orasida siyosiy-iqtisodiy omilning mavqeい ortib bormoqda. Ayni paytda, global-lashuv tahdidlarining ta'siri tufayli migratsiya jarayonlari murakkablashmaqda va ziddiyatli tus olmoqda.


Dunyoning ko'pgina mamlakatlarida migratsiya jarayonlarining jamiyatning siyosiy-ijtimoiy barqarorligiga ta'siri hamda bu boradagi xalqaro va xorijiy davlatlarning tajribasini o'rganishga ixtisoslashgan markazlar tashkil etilgan bo'lib, ular tomonidan migrantsion jarayonlarni o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar olib boriladi.

2018-yil 27-noyabrda BMT Xalqaro migratsiya tashkiloti kengashining Jeneva shahrida ochilgan 109-sessiyasida O'zbekiston Respublikasi Xalqaro migratsiya tashkilotiga 173-a'zosi bo'lib qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasi "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun 2018-yil 12-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan

va 14 dekabrda Senat tomonidan ma'qullan-gan. XMT Konstitutsiyasida uning maqsad va vazifalari e'lon qilingan. 2018-yil 26-dekabr kuni "Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish to'g'risida"gi qonun qabul qilindi.

Xalqaro migratsiya tashkiloti Konstitutsiyasini ratifikatsiya qilish, mazkur tashkilotga a'zo bo'lish O'zbekistonga bir qator huquqlardan foydalanishga imkon beradi. Jumladan, ovoz berish huquqidan foydalanish, Kengashda qaror qabul qilish va faoliyatida ishtirok etishga, joriy dasturlarda qatnashish yoki uning ehtiyoj va manfaatlariga doir ishlab chiqiladigan yangi loyihalarga o'z taklifini berishi va migratsiya bilan bog'liq dasturlarga xalqaro moliyaviy yordam olishi mumkin. Shuningdek, tashkilotning rivojlantirish jamg'armasi mablag'laridan foydalanish huquqiga ham ega bo'ladi.

Mamlakatimizda migratsiya masalalari borasida yetarli ishlар, shu bilan birga, pasport tizimini takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ham fuqarolik to'g'risidagi ishlарni yuritishni soddalashtrish, shaxsning xorija chiqish pasportini tattib etish asosida "...chiqish vizasi singari umrini o'tab bo'lgan o'tmish-qoldiqlarini bekor qilish", pasport tizimi qoidalarini maqbillashtirish va liberallashtirish, shaxsning erkin harakatlanishi ga xalaqit berayotgan byurokratik to'siq hamda korrasjon holatlarni oldini olish kabi vazifalar nazarda tutilgan.



Mamlakatimizda izchil tarzda davom eta-yotgan islohotlarning muhim tarkibiy qismi fuqarolarning mehnat qilishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarini amalga oshirish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqi bo'lgan mehnat huquqini ro'yoga chiqarishning yana bir muhim yo'nalishi – tashqi mehnat migratsiyasi sohasidir. O'zbekiston Respublikasida tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha faol davlat siyosati amalga oshirib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari mamlakatda amal qilayotgan qonun hujjalariiga muvofiq hukumatlararo, idoralararo shartnomalar va bitimlar asosida mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun xorija chiqish huquqiga ega. Shuningdek, xususiy mehnat shartnomalari bo'yicha mehnat faoliyatini amalga oshirish uchun, chet ellarda ishlash uchun ham maxsus ruxsatnomalar bo'yicha chiqishlar mumkin. O'zbekiston Respublikasi fuqarolarning huquqlari va mafaatlarini hisobga olgan holda, keyingi yillarda tashqi mehnat migratsiyasining samarali tizimini ta'minlash borasida davlatimiz tomonidan aniq cho-ra-tadbirlar belgilanishi davom etmoqda.

Abdumuxtor RAXMANOV,
Toshkent davlat yuridik universiteti Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasi dotsenti

XADICHA SULAYMONOVA TAVALLUDINING 110 YILLIGIGA 7

BILASIZMI?

ASRLAR davomida dunyo ayollariga o'rnak bo'lib kelgan sharq ayollarining deyarli ko'pchiligi aynan ko'hna Turon zaminidan. Ular qatorida Xadicha Sulaymonova ham bor. U 1913-yilning 3-iyunida Andijon viloyatida ziyoli oиласида dunyo kelgan. Otasi Sulaymon Kelginboy o'g'li o'z davrining bilimdon kishilaridan bo'lib, urushda halok bo'lgan. Ro'zg'ordagi barcha mas'uliyat onasi Otinchaning yelkasiga tushadi. Lekin suronli yillarga qaramasdan Xadichaning onasi qat'iyati ayol bo'lgani sababli farzandlarini hech kimdan kam qilmasdan ham ota, ham ona bo'lib tarbiyalaydi.

HUQUQ OLAMIDA O'CHMAS IZ QOLDIRGAN *ayol*

X. Sulaymonova 1931-yilda maktabni tamomlab, Toshkentga yo'l oladi. O'sha yillari O'rta Osiyoda oliy ma'lumotli yurist kadrilarga bo'lgan talab ancha yuqori bo'lgan. Shu maqsadda Toshkentda Jahon Obidova nomidagi Sovet qurilishi va huquq ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi. Xadicha aynan shu instituting tayyorlov kursiga qabul qilinadi. U tayyorlov kursini tugatgach, institutning 2-bosqichidan o'qishini davom ettiradi. 1935-yilda oliyogohni yuqori natijalar bilan tugatadi.



Xadicha Sulaymonova dastlabki ish faoliyatini tuman xalq sudida boshlaydi. U qisqa muddat ichida Oliy sud a'zoligiga tavsiya etiladi. 1935-yilning o'zidayoq 22 yoshli Xadicha Oliy sud sudyaligiga saylanadi. Shu davrgacha bo'lgan tarix davomida hech bir shaxs bu yoshida shunday lavozimni egallamagan edi.

Uning sudyalik faoliyati boshlanishi tarixda mash'um iz qoldirgan "Qatag'on davri"ga to'g'ri keldi. U ziddiyatlari bir davorda o'z millati va vijdoni oldida qonunlar doirasidan chiqmag'an holda adolatlari qarorlar qabul qila oldi. X. Sulaymonovaning ilmga chanqoqligi u ish faoliyati bilan band bo'sa-da aslo so'nmadidi. U aspiranturada o'qish uchun Moskva Yuridik

institutiga o'qishga kirdi. Xadicha Sulaymonovaning qay darajada bilimli va keng dunyo qarashga ega ekanligini o'sha davrda O'zbekistonda muammoli hamda yechими topmagan mavzuga qo'l uranidan ham bilişimiz mumkin. U dissertatsiya mavzusi sifatida "Harbiy intervensiya va grajdalar urushi davrida O'zbekistonning jinoyat qonunlari" mavzusini tanlaydi. Ammo 1941-yilda ko'plab begunoh insonlarning yostig'ini quritgan ikkinchi jahon urushining boshlanishi unga dissertatsiya ishini oxiriga yetkazib, himoya qilishga yo'l bermadi. Urush boshlangandan so'ng u Toshkent yuridik institutida talabalarga dars berish uchun jo'natiladi.

Xadicha Sulaymonovaning tirishqoqligi va mehnatkashligini biuning amaliyot sohasidagi ishlardira, pedagogik faoliyatida erishgan natijalarida ham ko'rishimiz mumkin. Institutta ishlagan yillari bo'lajak yuristlarga kuchli nazariy bilim beradi.

1948-yili SSSR Fanlar Akademiyasi Yuridik institutiga doktoranturaga yuboriladi. U akademiyada asosan O'zbekistonda sovet sularining tashkil topish tarixiga oid masalalar bilan shug'ullanadi. U o'z maqolalarida o'kamida 1928-yilgacha mavjud bo'lgan shariat sudularining ijobiy va salbiy tomonlarini, hattot ulardan ayrimlardan mintaqadagi tahlikaviy holatdan kelib chiqib foydalanish zarurligini qo'rqmasdan bayon etib, ularni chop etadi. Uning doktorlik ilmiy izlanishlari ijobiy baholab, fan doktori degan nomga ega bo'lgan birinchi ayol sifatida e'tiborga sazovor bo'ldi.

X. Sulaymonova Falsafa va huquq institutini tashkil etishga va uni huquq ilmiy-tadqiqot markaziga aylantirishga bosh-qosh bo'ldi. 1954-yilning dekabrida Xadicha Sulaymonovaga "O'zbekiston SSRda xizmat ko'rsatgan fan arbobi" unvoni beriladi.

U 1956-yilda O'zbekiston Fanlar Akademiyasining haqiqiy a'zosi etib saylanadi va akademik unvonini oladi. 1958-yil 24-yanvarda uning rahbarligida hozirgi kunda uning nomi bilan ataladigan Toshkent sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etiladi.

Xalqaro yirik anjumanlarda Xadicha Sulaymonovaning siyosatchilarga xos bo'lgan nutqlari jaranglay boshladi. U Amsterdam, London, Kolombo, Tokio, Dehli, Praga, Sofiya, Qohira kabi qator nufuzli shaharlardagi xalqaro anjumanlarda ishtirok etib, o'z mulohazalarini aniq yoritib bera organligiga tarix guvohdir.

X. Sulaymonova 1964-yilda O'zSSR Oliy sudi raisi etib saylanadi. O'sha davrda u nafqaqt Osiyoda, balki butun dunyoda ushbu lavozimni egallagan birinchi ayol bo'ldi. Bu martaba XX asrda shakllangan gender tengligi va ayollar huquqlari haqida olamga bong uring kurashayotgan, bu g'oyani ilgari surayotgan dunyoning yetakchi davlatlaridagi ayollarga emas, o'zbek ayoliga nasib etgan edi.

1965-yil 26-noyabrda og'ir xastalik bilan kurasishlardan so'ng X. Sulaymonova vafot etdi. Buyuk olimidan meros bo'lib qolgan hayot maktabi barcha uchun o'rnak va iftiordini.

Bu yil huquq olamida o'zidan o'chmas iz qoldirgan adolat tarafdoi, haqiqat talabgori bo'lgan Xadicha Sulaymonovaning 110 yilligi tantanli nishonlanadi. Shu munosabat bilan Toshkent davlat yuridik universitetida Xadicha Sulaymonova nomidagi stipendiya tashkil etildi. Biz - yosh huquqshunoslar esa ustoz qoldirgan ilmiy merosidan saboq olamiz va u bilan faxlanamiz.

Shoxjahon TOSHTEMIROV,
Toshkent davlat yuridik universiteti talabasi

ADVOKAT faoliyatining daxlsizligi va himoyasi Konstitutsiya darajasida ta'minlanishi belgilandi. Yangilangan Konstitutsiyada advokatura institutiga konstitutsiyaviy maqom berildi. Ya'ni, birinchi bor O'zbekiston Konstitutsiyasiga advokaturaga bag'iishlangan alohida bob kiritildi. Advokatlar faoliyati mustaqilligining konstitutsiyaviy kafolatları kuchaytirildi.

ADVOKATURA INSTITUTIGA KONSTITUTSIYAVIY MAQOM BERILDI

Jumladan, Konstitutsiyaning 142-moddasiga ko'ra, advokat o'z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo'l qo'yilmaydi.

Advokatga o'z himoyasidagi shaxs bilan moneliksiz va xoli uchrashish, maslahatlar berish uchun shart-sharoitlar ta'minlanadi.

Advokat, uning sha'ni, qadr-qimmati va kasbiy faoliyati davlat himoyasida bo'ladi va qonun bilan muhofaza qilinadi.

Prezidentning "Yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini amalga oshirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'grisida"gi farmoni bilan bir qator chora-tadbirlar belgilandi.

Jumladan, yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 142-moddasi talablaridan kelib chiqib jinoyat protsessida himoyachining maqomini kuchaytirish maqsadida, unga quyidagi qo'shimcha huquq va vakolatlar berildi.

Shuningdek, surishtiruv va dastlabki tergovda himoyachi tomonidan istalgan vaqtida jinoyat ishini qo'zg'atish va tugatish haqidagi qarorlardan nusxa ollish, ko'sratmalarni oldindan mustahkamlab qo'yish (deponirovaniye) uchun sudga to'g'ridan-to'g'ri iltimosnoma kiritish, tergovga qadar tekshiruv o'tkazilayotgan shaxslarga malakali yuridik yordamdan foydalanish huquqini kafolatlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv jarayonida himoyachi maqomida ishtirok etish vakolati berildi.

Ish bo'yicha shartnoma asosida sud ekspertizalari o'tkazilishini va zarur bilimga ega mutaxassislar jalb qilinishni tashkillashtirishi, jinoyat ishi bo'yicha ma'lumotlarga ega shaxslarni so'rovdan o'tkazishda ularning roziligi bilan maxsus texnika vositalaridan foydalanish belgilandi.

Bundan tashqari, advokatura sohasiga yosh kadrlarni faol jalb qilish maqsadida 2023-yil 1-sentabrdan boshlab oly ta'lim tashkilotlari yurisprudensiya yo'nalishida tahsil olayotgan bitiruvchi kurs talabalariga advokatlik tuzilmalarda mehnat qonunchiligiga muvofiq o'qishdan bo'sh vaqtida advokat yordamchisi sifatida ish faoliyatini olib borishga ruxsat berildi.

Shuningdek, ikki oy muddatda himoyachining huquq va vakolatlarini kengaytirishni, advokat yordamchisi sifatida ish faoliyatini olib borish tartibini takomillashtirishni nazarda tutuvchi qonun loylighasi ishlab chiqiladi.

E'LONLAR

Jizzax viloyat adliya boshqarmasining 2023-yil 4-maydag'i 79-umsonli buyrug'iga asosan, advokat Boboyev Sobir Soatovich "SEVINCH" advokatlar hay'atiga ishga qabul qilingani munosabati bilan unga 176-sonli advokatlik guvohnomasi berildi.

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertiza markazi jamoasi markazning Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik bilan aloqalar bo'limi boshlig'i Saydullaxo'ja Saidxo'jayevga onasi
Umidadon SAIDXO'JAYEVning vafot etganligi munosabati bilan hamdarlik bildiradi.

Toshkent shahar adliya boshqarmasi jamoasi boshqarma boshlig'ining birinchi o'rinosbasari
Ravshan HAMIDOVning vafot etganligi munosabati bilan uning oila a'zolariga hamdarlik bildiradi.

8 ADABIY AYVON



Vaqt

Eslaysanmi, bog'chamizga yondosh ko'chadan maktab o'quvchilar o'tardi. Ularga boqib qachon men ham katta bo'larkanman, deb havas qillardim. Assta-sekin ulg'aydim. Maktab ostonasiga ilk bor qadam qo'ng'animda quvchim bilan edam. Cheksiz orzu-umidlar bilan bilim ola boshladim. Birinchi o'qituvchim qo'llimga qalam tutqazdi, mehr bilan yozishni, o'qishni o'rgatdi.

Bir kuni o'qituvchim mendan so'radi: – Katta bo'sang kim bo'lasan? O'sha paytlarda ko'pchilik bolalar "katta bo'lsam uchuvchi-fazogir bo'laman", derdi. Men esa biroz qorquv va hayajon bilan "militisioner" bo'laman, deb javob bergandim.

– Demak, sen ko'p o'qishing, aqlii, dovyurak va mard bo'lising kerak, – degan edi ustoz.

Ha, kechagidek yodimda, maktabni bitirish marosimi edi. So'nggi qo'nig'iroq. Bu kun hayotim sahifalariga unutilmas, go'zal satrlar bitilgandi. O'zing uchun qadrdon bo'lgan sinfdosh do'stlar, mehridaryo o'qituvchilar bilan xayr-lashuv lahzalarini. Oltinga teng onlar. Kimningdir ko'ngliga kelajakka bo'lgan ishonch, bepoyon va go'zal orzu-maq-sadlar chechak ochgan, kimdir bugungi shodiyonadan, quvonchdan sarmast... Axir o'n yil davomida bir oiladek yashab, har tarafga tarqalishning ixtirobi, hasrati og'ir edi-da. Shunday hayajonli daqiqalarda tarix o'qituvchim Muborak opa (rahmatli)ning ko'zidan dona-dona tomchi yoshlarining sizib tushayotgani ko'rdim. O'shanda bu ko'z yoshlarni oddiy ko'z yoshlari deb o'yagan ekanman. Endi tushundim. Bu uning ustozlik va onalik mehr daryosining tomchilarini ekan. Eslaysanmi, shu kuni men sin-fimiz qizlari ichida alohida e'tibor bilan

VAQT! Buncha shoshmasang? Dengiz mavjilari, daryo irmoqlari yanglig' hapqirasan. Birpas tin olsangchi? Kel, bolalikning beg'ubor va betakror onlarini bir zum yod olaylik. Sirlashib, dardlashaylik.



OGOH BO'LING!
SEL oqimi respublikamiz hududida ba-hor mavsumida va yozning birinchi oyida yuz beradi. Shu sababli sel oqimidan deyarli himoyalanib bo'lmaydi. Shuning uchun tabiiy ofatning oldini olish choralarini ko'rish va sel mavsumida alohi-da hushyor bo'lish kerak.

SUV TOSHQINIDAN KEYIN NIMA QILISH KERAK?



SUV OQIMIDAN HIMOYA

To'g'on (damba) buzilib ketsa suv ostida qolishi mumkin bo'lgan pastliklardan nari yuring. Suv bosgan yerlarni, agar suv tizzadan yuqori kelsa, umuman kesib o'tmang. Suv oqimidan eng yaxshi himoya o'zini chetga olishdir. Oqim sizni yiqitishi mumkin, suv o'ramasida esa odam o'zini epolmay qoladi. Suv bosgan joylarda avtomobilida ham harakatlanib bo'lmaydi. Chunki suv ostida chuqurliklar bo'lishi mumkin.



Toshqin suvlariiga tushgan oziq-ovqat mahsulotlari iste'mol uchun yaramaydi. Bunday holatda suvni ham sanitariya tekshiruvishichimang. Har bir quduq oldin quritilishi, suv esa tekshirilishi lozim. Zarurat bo'lmasa suv bosgan uchastkalarga bormang. Elektr asboblari foydalishidan oldin quritilishi va sinab ko'riliши kerak.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari tomonidan sel oqimlarining oldini olish, ularga qarshi kurashish, sel bo'lishi mumkin bo'lgan maydonlarni aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi, albatta. Tabiiy ofatlarning oldini olish, ularning vujudga kelishi sabablarini churq o'rganish, atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarining hayotini asrash eng muhim vazifamizdir. Lekin har qanday tabiat hodisasiiga tayyor bo'lish uchun har bir inson o'zida bu boradagi bilimlarini mustahkmalab borishi, doimo hushyor va ogoh bo'lishi zarur.

**Hadyatillo NE'MATOV,
Xusnidin TUROPOV,**

Andijon viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi xodimlari

Azizjon FAYZIYEV,
IIIV Birlashgan tahririyati bosh muharrir
o'rinnbosari



**INSON
va qonun**

MUASSIS:
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
ADLIYA VAZIRLIGI

"Adolat" milliy huquqiy axborot
markazi nashri

Info@adolatmarkazi.uz

2007-yil 3-yarvanda
O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligiga
0081-ragan bilan
ro'yxatga olingan



**Bosh
muhabbir**
Asliddin
ALIMARDON

TAHRIR HAY'ATI

Alisher Karimov
Furqat Tojiev
Hayotjon Klichev
Sevara O'rinnboyeva
Yorbek Iskandarov
Dilfuza Ergasheva

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmoyi va mualifiga
qaytarilmaydi.

Nabvbatchi
Gulbahor Ortixxo'jayeva
Sahifalovchi-dizayner
Jasur Tojiboyev

Nashr indeksi: 137

"Inson va qonun" gazetasi hamda "Huquq va burch" ijtimoiy-huquqiy jurnalni birlashgan tahririyati kompyuter basasida terildi va sahifalandi. A3 bichimida, 2 bomsa taboq hajmda, ofset usulida "KOLORPAK" MCHJ bosmaxonasi-da chop etildi.

Korxona manzili: Toshkent shahri, Yunusobod tumani, 17-mavze, Yangi shahar ko'chasi, 1a-uy
Tiraj - 3850
Buyurtma - 1458

Topshirish vaqt - 19:00
Topshiridi - 20:00

MANZILIMIZ:
100115, Toshkent sh.
Amir Temur shohko'chasi
19-uy.

Faks: (71) 233-28-18
Obuna bo'limi:
(71) 233-25-65

Bahosi kelishilgan narxa
1 2 3 4 5